



BUXORO TOPONIMIKASINING SEMANTIKASI VA INDIKATORLARNING ETIMOLOGIYASI

Tolibova Zarina Davronovna

Buxoro davlat universiteti

Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

Toirova Guli Ibragimovna BuxDU

O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida

Professori, filologiya fanlar doktori

Anotatsiya: *Ushbu maqolada Buxoro toponimikasining kelib chiqishi, shu bilan birga olimlarning Buxoro toponimiyasi haqida qiziqarli fikrlari aytib o'tilgan. Toponimiyaning tarkibida qo'llaniladigan indikatorlarning kelib chiqish etimologiyasi, ular turli ma'nolarda qo'llanib, toponimlarning bir qancha turlarini hosil qilishda ishtirok etishi haqida ma'lumotlar aytib o'tilgan. Bundan tashqari indikatorlar misollar orqali tushuntirilgan.*

Kalit so'zlar: *toponim, toponimiya, etnografiya, Buxoro, etimologiya, indikator, rabot, qal'a, makon, tepa, ariq.*

Kirish. Joy nomlarining paydo bo'lishi insoniyat tarixiy taraqqiyotining mahsulidir. Inson nutqi, borliq to'g'risidagi fikri, tasavvuri, tafakkuri, dunyoqarashining o'sib borishi bilan joylarni nomlash ortib, joy nomlari ham ko'paya bordi. Hozirgi kunda nomsiz obyektни tasavvur qilish mumkin emas. Har qanday joy o'z nomiga ega. Shulardan Buxoro vohasini olsak. Bu vohaning tarixiy toponimlar to'g'risida qadimgi yunon, rim mualliflari asarlarida qisman ma'lumotlar uchraydi. Noma'lum muallif tarafidan yozilgan «Hudud ul-olam» asarining Movarounnahrda bag'ishlangan qismida Buxoro vohasining tarixiy toponimlari va shahar tavsifi berilgan. Buxoro Movarounnahrda eng katta va obod shahar, mashriq podshosining poytaxti, deb e'tirof etiladi. Buxoro mozorlari va shaharning XIV –XV asrlar tarixiy topografiyasini o'rganishda Ahmad ibn Mahmud Buxoriyning «Tarixi Mullozoda» asari beqiyos ahamiyatga ega.[2]

Asosiy qism. Geografik nomlar, ya'ni toponimlar (yunoncha, topos-joy, makon, onima-nom, ism) ha atoqli otlar bo'lib, uning eng takomillashgan turidir.[3] Buxoro toponimiyasining etimologik talqinida olimlar o'rtasida yagona fikr mavjud emas. Akademik V.V Bartold «Buxoro» sanskritcha Vixare, ya'ni «ibodatxona» so'zidan olingan deb hisoblasa, atoqli o'zbek olimi akademik A.Muhammadjonov «Buxoro» sug'dcha «Bug'oro – Tangri jamoli» ma'nosini anglatadi, degan fikrni aytgan. Ilk o'rta asrlarda xitoyliklar Buxoroni Buxo, An, Buxola, Fuxo, Puxale nomlari bilan atashgan. [2]



O`rta asr arab manbalarida Buxoro shahriga nisbatan «Madinat us-sufriya», «Madinat ut-tujjor», «Foxira» nomlari qo`llangan. Buxoro mustahkam qal`a devorlari bilan o`ralgani uchun «Madinat us-sufriya», ya`ni «Mis shahar» deyilgan. Karvon yo`lidagi xalqaro savdoda Buxoro yetakchi o`rin tutgani uchun «Madinat ut-tujjor», ya`ni «Savdogarlar shahri» deyilgan. «Foxira» atamasi islom dinining barqarorligi uchun kurashgan shahidlari bilan faxrlanuvchi shaharga nisbatan qo`llanilgan. «Buxoro» atamasining o`zi esa VIII asrlardan qo`llanila boshlagan.[2]

Muhokama va natijalar.

Turli hududlarning geografik nomlari toponimlarni hosil qiladigan mahalliy geografik terminlarga, ya`ni toponimik indikatorlarga qarab boshqa yerlarning joy nomlaridan farq qiladi. Z.Do`simov va X.Egamovlar «Joy nomlarining qisqacha izohli lug`ati» kitobida esa termini: «Indikator- toponimlar tarkibida kelib, obyektning xarakteri, xususiyati, soni va boshqalarni ko`rsatuvchi so`z». Indikator joy nomi yasashda qatnashib, uning tarkibida obyekt turini bildiradigan so`z.

P.G`ulomov «Jug`rofiya atamalari va tushunchalari izohli lug`ati» da ushbu termin haqida «Indikator toponimlarni hosil qiluvchi mahalliy geografik terminlar qum, tepa, daryo, suv, kent va boshqalar» degan ta`rifni geografik jihatdan bergan.

Turli hududlarning geografik nomlari toponimlarni hosil qiladigan mahalliy geografik terminlarga, ya`ni toponimik indikatorlarga qarab boshqa yerlarning joy nomlaridan farq qiladi. Buxoro toponimlari tarkibida uchraydigan indikatorlarni ko`rib chiqsak.

1.Rabot - ribot shakliga ega, aslida rabata fe`lining «joylashdi» ma`nosi asosida hosil qilingan bo`lib, bir-biridan ma`lum masofada joylashgan, soqchilar bilan qo`riqlanadigan qo`nish joyi.[12]

Rabot- (ash ribot) deganda dastlab harbiy istehkomlar tushunilgan. O`rta Osiyoda 2shahar rabot deyilgan. (Aslida raboz-zot harfi bilan yozilgan) Keyinchalik bu 2 so`z birlashib ko`proq karvonsaroylarni bildirgan.[11]: *Qumrabot, Qo`shrabot, Xo`jarabot, Chorrabot.*

Bayramali Kilichevning maqolalarida rabot so`zining batafsil tahlili berilganligini ko`rishimiz mumkin. Rabot-ot bog`lanadigan joy, muqaddas yoki diniy urush uchun kurashadigan g`oziyalarga mo`ljallab qurilgan. G`oziyalar rabotda dushmanlar bilan yuzma-yuz yashab, ularning hiyla-nayranglarini, hujumlarini daf qilib turganlar. Ribotlar (rabotlar) otliq askarlar dastalari uchun kazarma rolini bajargan. Rabot/ravot atamasining talqini ustida so`z yuritilar ekan, shuni qayd etish joizki, substrat vat o`zbek va tojik tillarida ot yasovchi kompozit sifatida vot, bod, bat, bed va bit shakllarda keng istifoda etiladi. Bunday ot yasovchi qo`shimchalar vositasida, odatda, ayrim oykonim, oronim, gidronimlarning maxsus leksemalari yasalgan. Tadqiqotchi O`Rajabov rabotni indictor ekanligini qayd etib, uning hozirgi davrda yangi nomlar yasashda ishtirok etmasligi, qishloq so`zi uning o`rnini egallaganligi, vazifasiga ko`ra formantga yaqinlashganini qayd etgan. Bu



indicator hozir faqat toponimlar tarkibidagina mavjud. Indikatorning is`temoldan chiqishi ham qator faktlar bilan bog`liq. Avvalo bu mazkur hududdagi xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy va iqtisodiy holati, ular tarixida yuz bergan turli o`zgarishlar kabi ekstralingvistik faktorlar bilan izohlanadi. Ikkinchidan, indikatorning semantic xiralanishiga va uning unutilishi kabi lingvistik omillar sabab bo`ladi. Uning tarkibida fonetik, morfologik o`zgarishlar, semantic torayish kabi hodisalar ham indikator ma`nosining unutila borishiga sabab bo`ladi. [1]

2.Makon- arabcha makan shakliga ega, asli «mavjud bo`ldi», «voqe bo`ldi» ma`nosini anglatuvchi kana fe`lidan olingan. Arab tilida 5 ma`nosini anglatuvchi so`z o`zbek tilida, asosan, turar joy ma`nosini anglatadi.[12]:*Xo`jamakon*.

3.Qal`a- qal`at shakliga ega, qal`a fe`lining «kovladi» ma`nosi asosida hosil qilingan. «Mustahkam qo`rg`on», «mudofaa inshootlari bilan ta`minlangan shahar» [12]:*Mirzaqal`a, Qirqqal`a, Yangiqal`a*.

4. Tepa- yer sathidan baland, do`ng joy, tepalik, balandlik.[3]:*Havzaktepa, Qo`riqtepa, Qatortepa, Qo`rg`ontepa, Teshiktepa*.

5. Ariq- (arabcha qadimiy eroniy tillarda «oqmoq» fe`lining o`zagi, ya`ni suv, suv yo`li.[11]:*Mirobariq, Odoqariq*.

6. O`zak- suvi ba`zan qurib qoladigan kichik ariq. [11]

7. Machit- ushbu terminning toponimik indikatorga aylanishi feodal Xeva xonligining ma`muriy bo`linishi bilan bog`liq. Bu arabcha termin «musulmonlar jamoa bo`lib namoz o`qiydigan joy, ibodatxona» ma`nosini anglatadi. Hozirgi paytda bu termin «qishloq, mahalla» ma`nosini anglatadigan indikatorga aylangan: *Balandmachit, Toshmachit, Toshmasjid*.

8.Xona- «O`zbek tilining izohli lug`ati» da uy yoki binoning devor bilan ajratilgan har bir alohida qismi,bo`lma deb ta`rif berilgan. Aslida forscha-tojikcha bo`lgan xona so`zidan biror narsa turadigan, saqlanadigan joy ma`nosidagi ko`plab so`zlar yasalgan.Biron xalq yoki qabila- urug` yashaydigan qishloq nomlariga ham xona so`zi qo`shilgan.[5]: *Urganjixona, Arabxona, Qushxona, Laylakxona*.

9.Afdoq- katta ariqdan chiqarilgan tarmoq[5]

10. Obod- o`zlashtirilgan, obodonlashtirilgan ma`nosidagi so`z affiks[5]: *Saidobod, O`zbekobod, Dashtobod, Navzirobod*.

11.Jo`y- kichikroq kanal, hozirda uning kichraygan shakli jo`yak saqlanib qolingan.[5]:*Labijo`y, Galajo`y, Miyonjo`y, Poyjo`y*.

12.Odoq- biron narsaning past tomoni, etak tomoni, soy-daryoning quyi oqimi[5]:*Odoqariq*.

13.Duvon/tuvon- *Qoqishtuvon, Buzunduvon*.

Xulosa.Xulosa o`rnida shuni aytib o`tish lozimki, toponimlarni semantik, etimologik tahlil qilganda uning asl ildizini, kelib chiqish asoslarini kerakli ma`lumotlar asosida bilib olamiz.Shu asnoda har bir joy qadimiy tarixga ega va u



yillar davomida sayqallanib kelmoqda. Shu bilan birga toponim tarkibida qo`llaniladigan indikatorlarni o`rganish bizga toponim nomini aniqlash uchun yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bayramali Kilichev. Buxoro toponimlarida rabot komponentining o`rni//Til va adabiyot.-2023.-12-son.-B.141-143.
2. Halim To`rayev. Buxoro toponimikasi.-Buxoro: Durdona,2021.- 273b.
3. N.Mahmudov, O.Odilov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov. O`zbek tilining izohli lug`ati- Toshkent: O`zbekiston,2021
4. Qo`chqor Hakimov. Toponimika- Toshkent: Mumtoz so`z,2016.- 376b.
5. Suyun Qorayev. Toponimika- Toshkent:O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati,2006.- 318b.
6. Toirova G.Establishment of a national corpus the uzbek language is a requirement of a new area. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). Vol 10,Issue9, September, 2021
7. Toirova G., Oripova P. Gratitude expresses pragmatic meanings, Published March 2, 2024, Multidisciplinary and Multidimensional journal, -B.280-284
8. Toirova G., Oripova P. Minnatdorchilik nutqiy aktining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, Google schoolor jurnali, 2024.-B. 96-100
9. Toirova G. So`zlashuv uslubida tejamlilikning pragmatic xususiyatlari. Ta`lim va innovatsion tadqiqotlar. Xalqaro jurnal. 2022№5, -B57-60.
10. Toirova G. O`zbek tili milliy korpusni yaratishda interfeysning ahamiyati.// So`z san`ati xalqaro jurnali, -Toshkent, 2020, №3, -B.100-105.
11. Zohid Madrahimov. Tarixiy toponimika- Toshkent: Navro`z,2017.- 127b.
12. Sh. Rahmatullayev. O`zbek tilining etimologik lug`ati- Toshkent: Universitet,2003